



## O'ZBEKISTONDA KATTALAR TA'LIMI, KATTA YOSHDAGI NOGIRON SHAXSLARNI KASB-HUNARGA O'QITISH, KATTALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM

D. Akbarov

*Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori*

Z. G'aniyeva

*12-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

XXI asr texnika asriga aylangan bir paytda bu taraqqiyotning ta'limga ham bevosita ta'sirini har jabhada uchratmoqdamiz. Xususan, bugungi globallashayotgan dunyoda kattalar ta'limi insonlarning farovon turmush kechirishlarining muhim qismiga aylanib ulgurdi.

«O'zbekistonda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish: dolzarb holat va rivojlanish istiqbollari» loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar katta yoshdagilarning o'qishga bo'lgan ehtiyoji yuqori ekanini aniqladi. 24-33 yoshdagilarning 70 foizdan ortig'i o'zlarida bilim va ko'nikmalarning yetishmasligini his qilmoqda, 34-42 yoshdagi respondentlar esa, ularning fikriga qo'shilgan. Jami respondentlarning 60 foizi bilim va ko'nikmalari yetishmasligini ko'rsatib o'tgan. So'rovnomada ishtirok etganlarning deyarli yarmi bilim va malaka oshirish uchun imkoniyati yo'qligini, oilaviy holatlar tufayli vaqt yetishmasligini, o'qishning to'lovi yuqori darajada ekanligini hamda ish beruvchining bundan manfaatdor emasligini ko'rsatib o'tgan. Ular orasida «oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish», «inklyuziv ta'lim», «katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish» kabi holatdagi ishtirokchilar bor.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'limdir.

Imkoniyati cheklangan shaxslarni kasb-hunarga yo'naltirish nafaqat ularga hayotda o'z yo'lini topishga yordam berish, balki kelajakda bandlik muammolarini ham hal qilishdan iborat. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan shaxslarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Buni to'g'ri anglash va yosh avlodni ish o'rinlariga to'g'ri taqsimlash jamiyat rivojining eng muhim jihatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-sonli qaroriga muvofiq Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda barcha hududlardagi kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha har chorakda qisqa muddatli kurslar tashkil etilmoqda. Bunda, qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni inobatga olgan holda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati hamda O'zbekiston



karlar jamiyati bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham tavsiya etilgan va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi va kompyuterda dasturlash asoslari bo'yicha doimiy ravishda o'quv kurslarini tashkil etmoqda. Bunda, o'quv kurslarini tashkil etishda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bino-inshootlarni moslashtirish, tegishli shart-sharoitlarni yaratish, jihozlash, o'quv qurollari va o'quv metodik materiallar bilan ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda xorijiy grantlar va xalqaro kreditlar hisobidan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda nogironligi bo'lgan 630 mingdan ziyod shaxslarning 162,2 ming nafari mehnat faoliyatining muayyan turlarini bajarish uchun layoqatli ekani, bu ko'rsatkich jami nogironlarning 25 foizini tashkil etishi, ulardan 7,2 ming nafari 1-guruh, 107,9 ming nafari 2-guruh, 49,4 ming nafari 3-guruh nogironligi bo'lgan shaxslar ekani, ayni kunda ulardan 21,1 ming nafarining (13 foiz) ish bilan band ekani ma'lum. Mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan nogiron shaxslarning 9,2 ming nafari oliy va 25,2 ming nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega, qolganlari ma'lumotga ega bo'lmaganlar yoki o'rta ma'lumotli. 2021-2025-yillarda o'quv markazlarida 1000 nafar nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga o'qitish, ular malakasini oshirish rejalashtirilgan.

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati, O'zbekiston nogironlar jamiyati hamda O'zbekiston karlar jamiyatining 2023-yildan boshlab hududlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashish, ularni kasb-hunarga o'qitish, madaniyat, san'at, sportga oid qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Imkoniyatlar markazi» faoliyati tashkil etiladi.

«Imkoniyatlar markazi»:

- nogironligi bo'lgan shaxslar va ish beruvchilar o'rtasida muloqot o'tkazish hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maydoni sifatida faoliyat yuritadi;

- nogironligi bo'lgan shaxslar bilan dastlabki suhbatlar o'tkazib, ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda kasb-hunarga o'qitishga ko'maklashadi.

Yangi O'zbekistonda hamma islohotlar inson manfaatlarini uchundir. Shunday ekan har kimning xoh u katta yoshli bo'lsin, xoh nogiron inson ta'lim olib, kasb-hunar egallashga to'la haqi bor. Bu jarayon esa davlatimiz tomonidan qonunlar bilan to'liq himoya qilinadi.